

JIZZAX VILOYATINI IJTIMOIIY-IQTISODIIY RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA BARCHA IMKONIIYATLAR ISHGA SOLINIB, NATIJADORLIKKA ERISHILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-iyul kuni Jizzax viloyatiga tashrif buyurib, sanoat va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa obyektlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab “Zomin texnoparki” maxsus sanoat zonasini borib ko‘rdi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida iqtisodiyot uchun g‘oyat zarur bo‘lgan korxonalar barpo etilmoqda. Bu yangi ish o‘rinlari yaratilishi, sanoat tarmoqlari rivojlanishi, pirovardida xalqimiz farovonligi oshishiga xizmat qilyapti. Jizzax viloyatida ham keyingi yillarda qayta ishlash sanoati hajmi sezilarli darajada oshdi.

“Zomin texnoparki” qurilishini o‘tgan yili 27-iyunda davlatimiz rahbari boshlab bergan edi. 400 gektarda barpo etilayotgan texnoparkda xitoylik investorlar bilan birgalikda 1 milliard 200 million dollarlik 31 ta loyiha amalga oshiriladi.

O‘tgan davrda zarur infratuzilma va inshootlar barpo etildi. Yaqinda ilk korxona — “Xinjiang Honglin Tiandi” kompaniyasi tomonidan qiymati 10 million dollarlik beton mahsulotlari tayyorlash loyihasi ishga tushirildi. 60 kishining bandligi ta‘minlandi.

Ayni kunlarda 42 million dollarlik ikkinchi loyiha bo‘yicha ishlar yakuniy bosqichda. Unda “Midea” brendi ostida yiliga 300 ming dona maishiy elektr texnikalari ishlab chiqariladi. 150 ta ish o‘rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbariga shu va navbatdagi loyihalar haqida axborot berildi.

Birinci bosqichda maxsus sanoat zonasiga 9 ta loyiha joylashtirilgan. Bugungi kunda qariyb 300 million dollarlik yana 7 ta loyiha bo‘yicha qurilish ishlari davom etmoqda. Ularda qurilish materiallari,

konstruksiyalar, elektr texnikasi va kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi, logistika va trening markazi tashkil etiladi.

Umuman, sanoat zonasidagi barcha loyihalar natijasida qariyb 5 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi, 15 turdagi yangi mahsulot o‘zlashtirilib, 70 million dollarlik eksport salohiyati yaratiladi. Eng muhimi, 5 mingdan ortiq fuqaro ishli bo‘ladi.

Prezident investorlarga ko‘maklashib, loyihalarni tezlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Sanoat sohalariga mos mutaxassislar tayyorlash, yoshlar bandligini ta‘minlash muhimligini ta‘kidladi.

Davlatimiz rahbari “Zomin texnoparki”da rejalashtirilgan yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Yuqorida qayd etilganidek, birinci bosqichda 9 loyiha bo‘yicha ishlar boshlangan. Endi ikkinchi bosqich doirasida yana 5 ta loyiha shakllantirilgan.

Jumladan, “Longze Investment Group” kompaniyasi bilan hamkorlikda xavfsizlik va tibbiyot texnikalari, “Foxit” kompaniyasi bilan noutbuk, planshet, server, router kabi zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mo‘ljallanmoqda. Shuningdek, charm va sport poyabzallari, qurilish materiallari, chinni idishlar, kimyo mahsulotlari bo‘yicha loyihalar ko‘zda tutilgan.

Ularning umumiy qiymati 250 million dollar atrofida bo‘lib, yuqori qiymatli tovarlar ishlab chiqariladi. Tayyor mahsulotlarning qariyb 70 foizi tashqi bozorga yo‘naltiriladi.

Jizzax viloyatida xorijiy investisiyalar miqdori yil sayin o‘tib bormoqda. 2018-yilda viloyatda bor-yo‘g‘i 18 million dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan bo‘lsa, o‘tgan yili bu raqam 1 milliard dollardan oshgan. Oxirgi sakkiz yilda viloyatga 3,7 milliard dollar investitsiya kiritilgan, 4 mingdan ziyod sanoat korxonalari ishga tushgan. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 260 tadan oshgan.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Zomin tumanida qurilayotgan maishiy texnika zavodini ko‘zdan kechirdi.

Ushbu yo‘nalish bo‘yicha yurtimizda katta salohiyat mavjud. Davlatimiz rahbari bu sur‘atni davom ettirib, milliy brendlar ostida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, O‘zbekistonni mintaqaviy “elektrotexnika xabi”ga aylantirish vazifasini qo‘ygan. Zomindagi zavod buning bir qismi bo‘ladi.

“Navoiy” maxsus sanoat parkingi filiali sifatida tashkil etilgan majmua 80 gektar maydonda joylashgan. Loyihaning umumiy qiymati 150 million dollar. Bu yerda kir yuvish mashinasi, sovitchi, televizor, elektr suv isitkich kabi yiliga 1 million dona maishiy texnika hamma turdovchi qismlar ishlab chiqariladi. 100 turdagi mahsulotlar natijasida mahalliyashtirish darajasi 70 foizga yetadi.

Muhimi, yillik ishlab chiqarish hajmi 320 million dollarni tashkil etadi. Shundan 140 million dollarlik mahsulot eksportga yo‘naltiriladi. 7 mingdan ziyod aholi ish bilan ta‘minlanadi.

Sanoat parkida tayyorlangan mahsulotlar Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston singari 15 dan ortiq mamlakatga eksport qilinadi.

Hozirgi o‘zgaruvchan bozor talablariga tez moslashish uchun zavodning o‘zida qolipxona ham tashkil etiladi. Zamonaviy logistika markazi orqali mahsulotlar xaridorga izchil yetkazib beriladi.

Bundan tashqari, sanoat parkida “Avtosanoat” AJ tarkibidagi korxonalar uchun plastmassa mahsulotlari tayyorlash ham rejalashtirilgan.

Mamlakatimizning barcha hududlarida imkoniyatlarni to‘la ishga solish choralari ko‘rilmoqda. O‘tgan yil 31-dekabrda Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha Prezident qarori qabul qilinib, zarur masalalar hal etib berilgan edi. Xususan, unda 2025-yilda 2 milliard dollar investitsiya jalb etish, eksportni 285 million dollarga yetkazish, 168 ming kishini ishli qilish chora-tadbirlari belgilangandi.

Bu vazifalar birin-ketin bajarilmoqda. O‘tgan olti oyda Jizzaxda sanoat, servis va qishloq xo‘jaligida 200 ta loyiha ishga tushdi. Viloyatga 662 million dollar investitsiya kirib keldi.

Natijadorlikni yanada oshirish maqsadida Jizzax viloyati Zomin tumanida ham “Islohotlar Shtabi” tuzilgan.

Davlatimiz rahbari tashrifi davomida viloyatda amalga oshirilishi rejalashtirilgan yangi loyihalar taqdimoti bilan ham tanishdi.

Xususan, “yagona darcha” tamoyili asosida qishloq xo‘jaligi xizmatlarini bitta

joyga jamlagan “Agromarkaz” tashkil etildi. Hosildorlikni oshirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga ijobiy ta‘sir etib, aholining ko‘proq daromad topishiga imkon yaratmoqda.

Jizzax viloyati kartoshkachilikni rivojlantirishga zamin qilib olinmoqda. Bugungi kunda Zomin ilmiy tajriba stansiyasida xorijiy va mahalliy seleksiyaga mansub 12 ta nav birlamchi urug‘chiligi yo‘lga qo‘yildi.

Odatda urug‘lik kartoshka yetishtirish 6-7-yilni va 8 ta bosqichni talab qilsa, yangi taklifga ko‘ra, jarayon 4 bosqichga kamaytirilib, 2-yilda tayyorlanadi. Bunda kartoshkaning yangi seleksiya navlaridan 12 tonna yuqori avlod super elita urug‘lik aholi xonadonlariga bepul tarqatiladi. Natijada 120 tonna elita kartoshka urug‘ligi yetishtiriladi. Loyiha doirasida Zomin va Baxmal tumanlari urug‘lik kartoshka yetishtirishga ixtisoslashtiriladi.

Shuningdek, dukkakli ekinlar ekish, Zarbdor tumanidagi kanalda nasos stansiyalari va magistral quvurlar qurish rejalari belgilangan.

Jizzaxning turfa tabiati, tog‘li va cho‘l hududlari yilning to‘rt faslida ham sayohat qilish imkonini beradi. “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi, Zomin aeroporti va yangi yo‘llar bu imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Yirik 6 ta kanal bo‘yida sayilgohlar tashkil qilindi. Endi “Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimi qirg‘oq bo‘yida ham zamonaviy turizm markazi barpo etiladi.

—Tumanlarga sanoatni olib kirib, odamlarni ishli qilishga harakat qilyapmiz. Ilgari dasht bo‘lgan joylarda zamonaviy korxonalar paydo bo‘lyapti. Odamlarimiz hunaridan, tomorqasidan ham daromad topyapti. Lekin bu bugungi natija. Yangi avlod yetishib kelyapti, yoshlarimizning bilimi, talabi oshib boryapti. Ularning ishlashi, yaxshi yashashi uchun hozirdan zamin yaratishimiz kerak. Agar imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanilsa, Zomin tumani ishsizlikdan xoli hudud bo‘la oladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ma‘lumki, Ko‘kdala tumanining yangi markazida san‘at saroyi, san‘at maktabi, umumta‘lim maktabi va sport majmuasi yonma-yon barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari bu bolalarga qulay bo‘lishini ta‘kidlab, kelgusi loyihalarda shu usulni qo‘llash zarurligini aytgan edi. Endi shu tajriba asosida Zomin tumanida ham madaniyat saroyi va san‘at maktabi qurilishi rejalashtirilgan. Madaniyat saroyi 300 o‘rinli bo‘lib, tuman markazidagi 45 mingdan ortiq aholiga xizmat ko‘rsatadi. Bu yerda “Zomin sayqali” folklor-etnografik jamoasi, 13 ta to‘garak faoliyat yuritadi.

Mutasaddirlarga ushbu rejaralar ijrosi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivoji bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Shu bilan Prezidentimizning Jizzax viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Abduljalol QAYUMOV,
O‘ZA muxbirlari

GEOLOGIYA-QIDIRUVDAN TAYYOR MAHSULOT OLISHGACHA BO‘LGAN TO‘LIQ ZANJIR ENERGIYA MUVOZANATINI TA‘MINLAYDI



Dunyo bo‘yicha muttasil oshib borayotgan talab sabab so‘nggi yillarda energetik barqarorlikni ta‘minlash dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Boshqa tomondan, ekologik muammolar tobora kuchayib boryaptiki, bu ikki jihat qo‘shilib qayta tiklanadigan, ya‘ni “yashil” energetikani rivojlantirishni strategik zaruratga aylantirmoqda.

Shu bois, salohiyatli davlatlar uning muqobil yo‘llariga intilmoqda. Jahondagi iqtisodiy chaqiriqlar, yuzaga kelgan murakkab vaziyat energiya manbalaridan yanada samarali foydalanish, “yashil” energetikaga e‘tiborni kuchaytirish, yangidan yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishni taqozo qilmoqda.

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTON BIZGA KATTA ORZULAR QILISHNI O‘RGATDI

MILLION DOLLARLIK LOYIHALAR HAQIDA O‘YLAYAPMAN

Xorijga ish qidirib borib, dehqonchilik bilan shug‘ullandim. O‘shanda nimaga o‘zimizda shuncha yer bor-u, begona yurtda mardikorlik qilyapmiz deb, o‘zimga o‘zim savol berardim. Chet elda kichkinagina yerda ham bozorgir mahsulotlar yetishtirib yaxshigina daromad topish mumkinligini ko‘rib, o‘zimizda ham paxta, g‘allani kamaytirib, mana shunday ekinlar ekib daromad topish, yerni haqiqiy egalariiga berish mumkin-ku deb o‘ylardim.

Davomi 2-betda



FARG‘ONA HAMMA SOHADA O‘ZGARISH, YANGILANISHLAR SHUKUHI ILA YUKSALMOQDA



Biz tanlagan yo‘l

Farg‘ona viloyati mamlakatimizning yirik ijtimoiy-iqtisodiy, savdo, madaniy va adabiy markazlaridan biri bo‘lgani bois, uni yurt gavhari va marvaridi sifatida e‘tirof etishadi.

Qadimgi Xitoy solnomalarida bu hudud “Davan”, “Parkana”, “Tog‘lar o‘rtasidagi vodi” kabi atamalar bilan ta‘riflangan. Hindiston va Xitoyga boriladigan katta karvon yo‘lida joylashgan maskanda



Davomi 3-betda

INSON HAYOTI XAVFSIZLIGI HAR NARSADAN USTUN

Bugungi kunda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash nafaqat milliy, balki global miqyosda dolzarb masalalardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Joriy yil 9-iyul kuni Prezidentimiz raisligida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ishlar tahlil qilindi, zarur vazifalar belgilandi.

Transport texnologiyalarining jad-dal rivojlanishi, avtomobillar soni, urbanizatsiya va harakat oqimi ortishi fonida yo‘l-transport hodisalari (YTH) soni ham o‘tib, ko‘plab insonlar hayotiga zomin bo‘lmoqda.

Buning oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, qilinayotgan ishlar samaradorligi esa kadrlar

tayyorlash sifatiga borib taqaladi. Bir necha yildirki, O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi magistraturasi tinglovchilarining dunyodagi eng nufuzli turdosh ta‘lim muassasa va mahkamalarida tajriba almashishi yo‘lga qo‘yilgan.

Davomi 4-betda



— Biz kabi ayollar bugun faqatgina orzu qilmaypti, ularda imidirlari amalga oshirmoqda. Kattat-kichik kaxonalarni qat'iyat bilan boshqarayotganlar. Madina opa singari zamondoshlarimizni ko'rib, mehriban bilan ishlayapmiz. Ularning yuzlab yangi ish o'rni yaratayotganini ko'rib quvonamiz. Ayniqsa, ijtimoiy-himoyaga muhtoj, nogironligi bor biz kabi ayollar



YANGI O‘ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Biz tanlagan yo‘l

FARG‘ONA XALQARO AEROPORTI



2025-yil 23-iyul 149-son

alohida e’tibor beryapmiz. Bu ishlar 152 mingdan ortiq oilani kambag‘allikdan chiqarish va kambag‘allik darajasini 4,8 foizga tushirish imkoniyatini beradi.

Yaqin istiqbolida mahallalar ihsizlikdan xoli hududga aylantirilib, har biri uchun jadal rivojlanishning yetakchi sohalari faol rag‘batlantiriladi. Albatta, bu hammasi risoladagidek, to‘kis degani emas. Hozircha viloyatda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan, o‘z navbatini kutib turgan muammolar ham borligidan aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi. Ammo ezgu fazilatli el ushbu masalalarni o‘zaro ahilinoqlik, hamjihatlik bilan bartaraf etishga qodir.

Farg‘onaning

FARG‘ONA HAMMA SOHADA O‘ZGARISH, YANGILANISHLAR SHUKUHI ILA YUKSALMOQDA



Xayrullo BOZOROV,
Farg‘ona viloyati hokimi

Boshlanishi 1-betda

Investitsiya — farovonlik omili

Mamlakat taraqqiyoti bevosita iqtisodiy tarmoqlarning barqarorligiga bog‘liq. Shu bois, yangi O‘zbekistonda har bir hududga investitsiya kiritish orqali iqtisodiy o‘shisha erishishday hayotbaxsh yo‘g‘ri tanlangan. Xususan, joriy yilda viloyatimiz iqtisodiyot tarmoqlariga xorijdan 3,7 milliard dollar investitsiya jalb etishni reja qilganmiz. Atigi bir yil oldingi holatga qiyoslasak, bu 1,2 barobar ko‘p degani. Shuningdek, 1,5 milliard dollarlik mahsulot eksport qilinib, 450 mingga yaqin yuqori daromadli yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Bundan 7-8 yil avval viloyatga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport ko‘rsatkichlari borasida bor-yo‘g‘i 500 ming dollarlik marra belgilangan edi. Ayni paytda bu miqdor hajmi alaqachon bir milliard dollarlik dovondan oshgan. Xususan, o‘tgan yilning o‘zida umumiy qiymati 1,8 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Natijada 35 ta yirik ishlab chiqarish quvvati ish boshladi. Umuman olganda, so‘nggi yetti yilda viloyatda sanoat korxonalari 2,8 barobarga ko‘payib, 13 mingga yaqin yetdi. Buning barchasi yangi ish o‘rni, aholi daromadi degani. Oddiy odamlarning iqtisodiy ahvoli yaxshi bo‘lsa, istagan kasb-korini qilishga imkon yaratilsa, hayotdan rozi bo‘lib yashaydi. Negaki bunday sharoit ularga barcha orzu-umidlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ish o‘rinlari bilan bog‘liq yana bir misol. Viloyatimizda sanoat, xizmat ko‘rsatish, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalarida 1182 ta loyiha ishga tushib, 36 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Ishlab chiqarishda esa ip-kalava, tikuv-trikotaj, kimyo, DSP, MDF plitalar, oyna va undan yasalgan buyumlar, elektrotexnika, charm, farmatsevtika tarmoqlari “drayver” sohaga aylanib bormoqda. O‘tgan yili eksport geografiyasi 22 ta davlatga kengayib, qiymati bir milliard dollardan oshdi. Ular qatorida O‘zbekiston bozori uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochgan Misr, IAR, Marokash, Peru, Kosta-Rika, Kolumbiya, Kanada, Angliya, Serbiya, Slovakiya, Argentina, Iordaniya, Kuvayt, Fransiya, Mongoliya singari mamlakatlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Quvonarlisi, aloqalarimiz ko‘lami kun sayin kengayib boryapti. Masalan, mahsulotlar eksporti Italiya, Yaponiya, Ispaniya va Saudiya Arabistoniga to‘rt barobarga, BAA, Tunis va Turkiyaga uch barobarga ko‘paydi.

Bu bejiz emas. So‘nggi yillarda O‘zbekistondagi o‘zgarishlar, ayniqsa, liberallashayotgan iqtisodiyot, xorijiy investorlarga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar tadbirkorlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Mazkur jarayon mamlakatimizni Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Yevropa va qolgan hududlar bilan bog‘lovchi ko‘priklar bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa yangi O‘zbekiston zamonaviy dunyoning rivojlanish markaziga aylanishiga xizmat qiladi.

Ushbu fikrlar balandparvoz gap emas. Buni nufuzli xalqaro ekspertlar guruhi ham tan olyapti, e’tirof etyapti. Masalan, dunyoning eng nufuzli “S&P Global Rating” (AQSH) xalqaro reyting agentligi Farg‘ona viloyatining investitsiyaviy jozibadorligini tahlil qildi. Natija esa quvonarli. Ya’ni viloyatimiz mustahkam moliyaviy indikatorlari va yuqori iqtisodiy salohiyati uchun “B+” va ya’ni “barqaror”

darajasidagi kredit reytingiga ega deb topildi. B+ reyting ko‘rsatkich dunyoda iqtisodiy holati barqaror va moliyaviy jihatdan qarzdorligi bo‘lmagan hamda sog‘lom investitsion muhitga ega hududlarga beriladi. Bu o‘sha hududning xalqaro doiradagi holati ijobiy pog‘onada ekanini bildiradi.

Xalqaro tashkilot hisobotida Farg‘ona viloyati byudjeti ko‘rsatkichlari yuqori o‘shishga egaligi e’tirof etildi. Shuningdek, tijoriy qarzdorligi yo‘qligi va qarzdorlik darajasi deyarli nolga teng ekani va bu viloyatning likvidlik ko‘rsatkichlari yuqori barqarorlikni saqlab qolishi alohida e’tirof etildi.

Yaratilayotgan imkoniyatlarga bitta misol. Qo‘qon shahrida “Farg‘ona — vodiya gahvari. Investitsiyalar va turizm istiqbollari” mavzusida birinchi xalqaro forum o‘tkazildi. Undan ko‘zlangan maqsad, xorijlik ishbilarmonlar oqimini ko‘paytirish, savdo-iqtisodiy va investitsiya imkoniyatlarini keng namoyish etish edi. Forum doirasidagi tadbirlarda dunyoning 30 dan ortiq mamlakatidan 250 ga yaqin tadbirkor g‘atnashdi. Muzokaralarda umumiy qiymati 223,3 million dollarlik 25 ta investitsiyaviy kelishuv va savdo bitimlari imzolandi. Bunday katta kelishuvlarning uddasidan chiqish bir masala bo‘lsa, uni to‘g‘ri boshqarish, ishini samarali tashkil etish alohida mavzudur. Shu bois, mamlakatimizda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganishga e’tibor berilayotgani ham quvonarli. Masalan, viloyatimizdagi tadbirkorlar sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlangan davlatlarga xizmat safariga yuborilmoqda. Ular tajriba almashish jarayonida hamkorlar ham topib kelmokda. Mazkur ishlar doirasida imzolangan hujjatlar asosida “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Hozir 5,2 milliard dollarlik 158 ta loyihani amalga oshirish borasida ish olib borilyapti.

Koreya Respublikasi ishbilarmonlari bilan umumiy qiymati 219 million dollarlik 12 ta loyiha bo‘yicha manzilli kelishuvga erishildi. Koreyada “Farg‘ona-Chungchong-namdo” (Koreya) savdo yoi tashkil etildi. Shu orqali yurtimizga koreyalik tadbirkorlarni ko‘proq jalb etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotimizni ularga eksport qilish orqali

Gap farg‘onaliklar hayot tarzi bilan bog‘liq o‘zgarishlar, farovonlik haqida ketganda, albatta, aholini uy-joy bilan ta‘minlash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu boradagi o‘zgarishlar sabab ularning turmush sharoiti yaxshilandi, dunyoqarashi, ko‘nikmalari o‘zgardi. Hamyurtlarimiz qurayotgan uylarga havasingiz keladi. Me’moriy yechimlar, qulayliklar butunlay yangicha, jahon andozalariga mos.

investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsad qilingan. Natija ham shunga yarasha bo‘lmoqda. “POSCO textile Fergana” korxonasi viloyatda ip-kalava ishlab chiqarishda samarali faoliyat yuritmoqda. Korporatsiya tashabbusi bilan Yozyovon tumanida paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Germaniyalik tadbirkorlar bilan hamkorlikda “Teamdress holding GmbH” MCHJ xususiy korxonasida qiymati 3,2 million dollarlik xorijiy investitsiya hisobiga maxsus kiyim-bosh ishlab chiqarish loyihasi yo‘lga qo‘yildi. Natijada 200 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Rossiyalik tadbirkorlar bilan hamkorlikda “Ferghana spinning” MCHJ qo‘shma korxonasi gazlamamato ishlab chiqarish bo‘yicha 10,5 million dollar qiymatidagi loyiha ishga tushirildi.

Shahar va tuman hokimliklari hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamkorligida Jahon banki mablag‘laridan foydalangan holda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan 28 ta istiqbolli loyihaning manzilli ro‘yxati shakllantirildi. Uning umumiy qiymati 34 million dollarni tashkil etadi.

Prezidentimiz 2024-yil 3-dekabr kuni Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazgan edi. Unda qator vazifalar belgilab berilgan va ularning ijrosi doirasida umumiy qiymati 6 milliard dollarlik investitsiya loyihalari o‘zlashtirildi. Shuning



hisobiga 44 mingga yuqori daromadli yangi ish o‘rni yaratish borasida ish olib boryapmiz. Ayni kunda Dang‘ara tumanida xitoyliklar bilan “Qashqar po‘lat metall” MCHJ xususiy korxonasi tomonidan gayka va bolt, Uchko‘prik tumanidagi “Yon Xin” xorijiy korxonasida keramik (kafel) plitalar ishlab chiqarish masalasida samarali ishlar olib borilyapti. Loyiha doirasida 500 kishi ishli bo‘ladi. Shu yo‘nalishlarda viloyatimizda

95 ta yangi korxona tashkil etilib, 10 turdan ortiq import o‘rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va eksporti yo‘lga qo‘yildi.

Quvasoy shahrida “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasi hududi 210 gektarga kengaydi. Endi bu hududda 1 milliard dollarlik 185 ta yangi loyiha amalga oshirilib, 11,8 mingga ish o‘rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 11-12-iyul kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurganda iqtisodiy barqarorlikka qaratilgan muhim topshiriqlar bergan edi. Shunga muvofiq, Qo‘qonda maxsus sanoat zonasi — “Qo‘qon texnopark” tashkil etilmokda. Texnoparkka ajratilgan 230 gektar yerda dastlabki bosqichda 1,5 milliard dollarlik loyihalarni boshlash va 5 mingdan ortiq ish o‘rni yaratish reja qilingan. Bundan tashqari, tuman va shaharlardagi 1210 gektar yer maydonlarida maxsus sanoat zonalarini tashkil etish ishlari jadal olib borilyapti.

Xomashyo emas, tayyor mahsulot sotiladi

Bir necha yil avval mamlakatimiz faqat agrar tarmoqdan iborat edi, desak mubolag‘a bo‘lmaz. Ammo shunda ham bu sohaning iqtisodiy samarasi past edi. Chunki ish birlamchi xomashyo yetishtirishdan nariga o‘tmadi. Sohaga yangi texnika va texnologiyalar olib kelish, ekin navlari va agrotexnikasini rivojlantirish o‘z holiga tashlab qo‘yilgandi. Bugun bu boradagi ish tizimi, qarashlar o‘zgardi. Dehqonchilikka ilm kirib keldi, manfaatdorlik oshdi.

Mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta xomashyosi yuqori sifati, pishiqligi hamda zamonaviy to‘qimachilik sanoati talablariga to‘la javob berishi bilan jahonda mashhur. Bugunimizning ustuvor vazifalaridan biri mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish bilan birga mahalliy xomashyolardan qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishdir. O‘tgan yilning o‘zida shu maqsadga xizmat qiladigan 462 ta istiqbolli loyiha amalga oshirildi. Eksportyor agroklaster hamda fermer xo‘jaliklari tomonidan 315 million dollarlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilindi. Bu avvalgi yillarga qiyoslaganda 1,5 barobarga ko‘p degani.

Uch-to‘rt yil oldin paxtani ip-kalavaga aylantirish 100 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, ipdan keyingi bosqich 5 foizdan oshmagan. Joriy yil yakuni bilan viloyatimizda mato ishlab chiqarish 127 foiz, bo‘yash 29 foizga va tayyor mahsulot ishlab chiqarish 39 foizga yetadi. Mana shu jarayonning o‘zi mahsulot narxi oshishi, ish o‘rinlari yaratilishi kabi jihatlar sabab mamlakat iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Vodiy ahli bog‘dorchilik sirlarini puxta o‘zlashtirgani bilan ajralib turadi. Keyingi yillardagi o‘zgarishlar sabab shu imkoniyatdan ham oqilona foydalanishga o‘tdik. Xususan, Oltiariq tumanidagi “IxtlosASB” MCHJ tomonidan yurtimiz bog‘larida yetishtirilgan 10 dan ortiq sarxil mevalar tabiatligini saqlagan holda quritilib, MDH davlatlarga eksport



qilinmoqda. Buning uchun Xitoydan zamonaviy texnologiyalar olib kelindi. Hozir mevalarni sifatli quritish, muzlatkichli omborxonada saqlash jarayoni jahon andozalari darajasida tashkil etilgan. Qayta ishlash, konservatsiya qilish va tabiiy holda quritish orqali mahsulotlar va xoriydagi yirik savdo tarmoqlariga yetkazib berilyapti. “Halol” sertifikatiga ega bo‘lgan mahsulotlar endilikda okeanorti va Yevropa davlatlariga eksport qilinayapti.

Agrar sohada aholi bandligini ta‘minlash, daromadlarni oshirish maqsadida keyingi uch yilda 25 ming gektar paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, ochiq elektron auktsion orqali dehqon xo‘jaligi uchun aholiga berildi. Buning hisobiga 110 mingdan ortiq yangi dehqon xo‘jaliklari tashkil etilib, 220 mingdan ziyod doimiy ish o‘rni yaratildi.

Shu o‘rinda bunday natijalarga qanday erishilmoqda, degan haqli savol tug‘iladi. Albatta, tizimni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, mavjud imkoniyatlarni yangicha nigoh, o‘ziga xos ziyraklik bilan ko‘ra olish orqali. Keyingi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarda bu jihatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosidagi ishlar borasida ham shunday fikr bildirish mumkin. Masalan, viloyatimizda shu tamoyil asosida 740 ta mahalla ixtisoslashtirildi. Natijada 2-3 marta hosil olish hisobiga 41 ming gektar tomoqda 1,4 million tonna mahsulot yetishtirildi. Aholi xonadonlaridagi jami 56 mingga issiqxonaning 11 mingga tasi limon, 45 mingga tasi sabzavot yetishtirilmoqda. Rossiyaning “Semena Stavropolya” kompaniyasi bilan hamkorlikda Yozyovon tumanida 10 gektar maydonda g‘allaning 56 xil navi ekilib, sinov-tajriba dalasi tashkil qilindi. Natijada g‘alla hosildorligi uch hissa oshdi. Joylarda 100 sentnerga yetkazib g‘alla olayotgan ishbilarmonlar kundan kunga ko‘payib bormoqda.

Bu o‘z-o‘zidan amalga oshirilayotgani yo‘q, albatta. Sohaga ilmiy yondashuvlar kirib keldi, yangi texnika, texnologiyalarni joriy etish, intensiv usulda mahsulot yetishtirish tajribalari ummalashdi. Shu kungacha qadar 1137 ta yuqori umumli haydov, lazer tekislagich, chigit ekish seyalka, chopiq kultivatorlari, don o‘rish va paxta terish texnikalari sotib olingani ish unumdorligini oshirdi.

Munavvar tong tarovati

Gap farg‘onaliklar hayot tarzi bilan bog‘liq o‘zgarishlar, farovonlik haqida ketganda, albatta, aholini uy-joy bilan ta‘minlash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu boradagi o‘zgarishlar sabab ularning turmush sharoiti yaxshilandi, dunyoqarashi, ko‘nikmalari o‘zgardi. Hamyurtlarimiz qurayotgan uylarga havasingiz keladi. Me’moriy yechimlar, qulayliklar butunlay yangicha, jahon andozalariga mos. Tahlillarga ko‘ra, viloyat aholisi har yili o‘rta hisobda 90 ming nafarga qillardagi o‘zgarishlar sabab shu imkoniyatdan ham oqilona foydalanishga o‘tdik. Xususan, Oltiariq tumanidagi “IxtlosASB” MCHJ tomonidan yurtimiz bog‘larida yetishtirilgan 10 dan ortiq sarxil mevalar tabiatligini saqlagan holda quritilib, MDH davlatlarga eksport

li tashabbuslar tufayli o‘tgan qisqa davrda viloyat markazida Farg‘onaning o‘ziga xos yangi timsoliga aylangan Ekoshahar — “Yangi O‘zbekiston” massivi qurib bitkazildi. Ekoshahar loyihasi mamlakatimizda o‘xshashi yo‘q — noyob va mukammal yondashuv asosida qurilgani bilan ajralib turadi. Yangi shaharcha endilikda viloyatning o‘ziga xos turizm maskani sirasiga kiritilib, bayramlar, turli tantana va festivallar, konsert dasturlari o‘tkaziladigan markazga aylandi. Noyob manzarali daraxtlar, yashil xiyobonlar, attraksionlar maroqli hordiq chiqarish imkonini bermoqda.

Aholining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida Yozyovon va Farg‘ona tumanida “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurilishi poyoniga yetayotgan bo‘lsa, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida yangi turar joy massivlari qurilishi farg‘onaliklar hayotida yana bir yangi davr boshlanganidan dalolat. Bundan tashqari, viloyatimiz bo‘ylab Rennovatsiya dasturi asosida ma‘nan eskirgan uy-joylar



o‘mida zamonaviy ko‘p qavatli uylar bunyod etilayotgani oilalar hayotiga quvonch, shodlik tuyg‘ularini olib kirmoqda.

Kambag‘allik darajasi 4,8 foizga tushiriladi

Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G‘ijduvon tajribasi viloyatning 1063 ta mahallasiga kirib bordi. Bu aholi bandligini ta‘minlash, farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishda muhim omil bo‘lmoqda.

O‘tgan yili ushbu yo‘nalishda banklar bilan hamkorlikda 73 ming aholi bandligi ta‘minlandi. Shuningdek, 6438 ta keng daromadli oila tanlab olinib, ularga 103 milliard so‘mlik ijtimoiy paket yetkazib berildi.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida 7096 ta kambag‘al oilaga 1430 nafar rahbar birlashtirilib, har biri oila bo‘yicha alohida reja asosida ishlab yo‘lga qo‘yildi.

“Mahallabay”, “xonadonbay” ishlash tizimi asosida viloyatdagi mahallalarni aniq bir yo‘nalishga ixtisoslashtirish choralarini ko‘rdi. Bugunga qadar mahallalarning 220 tasi sanoat, 281 tasi dehqonchilik, tomoqchilik, 238 tasi ko‘chatchilik, gulchilik, uzumchilik, 144 tasi xizmat ko‘rsatish sohasiga ixtisoslashtirildi. Natijada yuzdan ortiq mahalla ihsizlikdan xoli hududga aylandi. Yaqin istiqbolida esa viloyatdagi barcha mahallalar o‘zlar uchun drayver bo‘lgan sohalarni bo‘yicha ixtisoslashadi. Joriy yilda qariyb 500 ming aholi bandligini ta‘minlash orqali har farovon yashashiga

joylashgan “Karkidon” suv ombori atrofida minglab gektar yer maydonlari asrlar davomida ko‘pning e’tiboridan chetda qolgan edi. Suv yo‘qligi bahonasida shu kunga qadar biron tup nihol o‘tqazilmagan. Endi bu yerdagi holat o‘zgarib,

300 ming tupdan ortiq manzarali ko‘chatlar ekish, bog‘ yaratish an‘analari quloq yoydi. Ekligan daraxtlar unib-o‘shishi uchun suv yo‘llari ochilib, yo‘l bo‘ylari yangicha hayot, ko‘rk, obodlikka yuz tutmoqda. 24 gektar maydonda “Sokin hudud” dam olish maskani bunyod etishga kirishildi. Hududda mehmonxona, dam olish maskanlari, restoran, suv sporti obyektlari, playazoni va pirs yo‘nalishlarini qamrab olgan loyihalar amalga oshirilmokda. Shu maqsadda zamonaviy yo‘llar qurish, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatini tashkil etish borasidagi tashabbuslar ko‘llab-quvvatlanayapti. Hududlarda bola, kashan, yapon saforasi singari manzarali daraxt ko‘chatlarini mahalliy iqlim sharoitlarga moslashtirish, pavlovniya va ninabargli daraxtlar, yangi nav gul ko‘chatlari yetishtirish va turlarini ko‘paytirishga alohida e’tibor berilyapti. Har bir ko‘chatni ekish hamda parvarishlash bo‘yicha o‘ziga xos tavsiyalar berish yo‘lga qo‘yildi.

Sirasini aytganda, farg‘onaliklar mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida faollik va fidoyilik ko‘rsatib, mamlakatimiz mustaqilligining qutlug‘ 34 yillik shodiyonasini barcha sohalarda munosib yutuqlar bilan kutib olishga harakat qilmoqda. Amaliy islohotlar shahar va qishloqlarda umrguzaronlik qilayotgan oddiy odamlar hayot tarzida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

INSON HAYOTI XAVFSIZLIGI HAR NARSADAN USTUN



**Abdunabi NOSIROV,
polkovnik, IIV akademiyasi
magistraturasi bitiruvchisi:**

— Yo'l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy talablariga to'liq muvofiqlashtirish, ushbu sohada qoidabuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga yo'naltirilgan samarali tizimni yo'lga qo'yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish talab etilmoqda. Prezidentimizning 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, o'tgan qisqa davrda tuman (shahar)larda yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo'yicha "Xavfsiz yo'l" indeksining indikatorlari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda jamiyatimizda ko'p uchrayotgan jinoyatlardan biri yo'l-transport hodisasidir. Shu sababli ushbu jinoyat tushunchasi, uning oldini olish choralari dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Bu, o'z navbatida, sud-tergov organlari tomonidan ushbu turdagi jinoyatlarni ko'rib chiqish amaliyoti murakkablashishiga, ayniqsa, jinoyat bo'yicha jabrlanuvchilar soni oshib ketishi, keng qamrovli targ'ibot ishleri olib borish zarurati, ya'ni YTH ishtirokchilarining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishni oldimizga ko'ndalang qo'ydi.

Jumladan, 2024-yil 19-yanvarda qabul qilingan "Yo'l harakati to'g'risida"gi qonun yo'l harakati ishtirokchilari huquqlari va majburiyatlari, yo'l harakatini boshqaruvchi davlat organlari faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Hujjarda yo'l harakati ishtirokchilarining bilim va madaniyat darajasini oshirish, zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va videonazorat vositalarini joriy etish, yo'l-transport vositalarining texnik holatini nazorat qilish, piyodalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish kabi asosiy vazifalar ham belgilangan.

Aholi soni o'sishi, shaxsiy avtomobil vositalari ko'payishi va transport oqimi ortgani, ayniqsa, katta shaharlarda tirbandlik, kechikish

va yo'l-transport hodisalari kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ularni hal etishda intellektual transport tizimlari (ITT) samarali yechim sifatida qaralmoqda.

Intellektual transport tizimlari axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda transport sohasini boshqarish, rejalashtirish hamda xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar majmuasidir. Ushbu tizimlar orqali yo'l harakati nazorati avtomatlashtiriladi, real vaqtda ma'lumot ta'minlanadi va foydalanuvchilarga qulay sharoit yaratiladi.

Shu rinda Xitoy tajribasi haqida ikki og'iz aytib o'tish joiz. XXRda shahar ichida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jamoat transporti davlat tasarrufidagi tashkilotlarga, shaharlararo jamoat transportlari xususiy xoldinglarga tegishli. Jamoat transportlari davriylik asosida 8-10 yilda foydalanishdan chiqariladi. Bundan tashqari, yo'l harakati xavfsizligi qoidasini buzgan haydovchi va fuqaroga nisbatan chora ko'rishda alohida kodeks hamda harakat xavfsizligini ta'minlash va uning nazoratini olib borish uchun "Nazorat" platformasi mavjud. Ushbu platforma shaharda mavjud kuzatuv kameralari orqali ko'chalarda sodir bo'lgan yo'l-transport hodisasi to'g'risida to'g'ridan to'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatib beradi va hodisa sodir bo'lgan hududga yordamchi kuch-vositalar jo'natiladi.



“Yana bir jihat. Ilgari yo'l harakati xavfsizligi inspektori haqida xalqimizda salbiy ijtimoiy fikr shakllangani bor gap. Bugungi inspektorlar bundan 3-5 yil oldingi inspektorlar emas. Inspektorlarning aksariyati halol, pok, o'z xizmat vazifasi mas'uliyatini chuqur anglagan xodimlar. Bugun ongi, dunyoqarashi o'zgargan, sharafini qadrlaydigan inspektorlarning zamonaviy qiyofasi shakllanmoqda.

qasddan mensimasligi va tajribasizligi, piyodalarning qoidalarga amal qilmasligi ham sabab bo'lmoqda.

Yana bir jihat. Ilgari yo'l harakati xavfsizligi inspektori haqida xalqimizda salbiy ijtimoiy fikr shakllangani bor gap. Bugungi inspektorlar bundan 3-5 yil oldingi inspektorlar emas. Inspektorlarning aksariyati halol, pok, o'z xizmat vazifasi mas'uliyatini chuqur anglagan xodimlar. Bugun ongi, dunyoqarashi o'zgargan, sharafini qadrlaydigan inspektorlarning zamonaviy qiyofasi shakllanmoqda.

Prezidentimiz tomonidan ichki ishlar organlari uchun yuksak malakali kadrlar tayyorlash borasida ilgari surilgan konseptual g'oyalar, jahonda tan olingan oliy ta'lim standartlariga asoslanib, O'zbekiston

Respublikasi IIV akademiyasining ta'lim tizimi va mazmunini milliy manfaatlarimizga moslashtirish, bunda ilg'or xorij tajribalaridan samarali foydalanish, dunyoda eng nufuzli turdosh ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qila oladigan oliy ta'lim maskaniga aylantirish borasida tizimli ishlar qilinmoqda.

Ushbu yangi talablar asosida magistraturada o'quv jarayonining tuzilishi qayta ko'rib chiqildi. Davr nafasiga mos keluvchi, mutlaqo yangi mazmunda o'quv dasturlari, ularning negizida o'quv fanlari yaratilmoqda. Ilmii, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodi tayyorlanib, chop etilmoqda. Nazariya va amaliyot uyg'unligiga e'tibor qaratilib, muassasamiz o'quv jarayonlariga tanqili olimlar hamda katta tajribaga ega amaliyot xodimlari jalb etilmoqda.

**Sharif QOBILOV,
O'zbekiston Respublikasi
IIV akademiyasi professori:**



— Davlatimiz rahbari xavfsizlik pragmatizmda asosiy diqqat-e'tiborini inson hayoti, uning xavfsizligini ta'minlashga qaratayotir. Bizda "Yo'l qurganining yo'li ochiq" degan naql bor. Shu ma'noda, so'nggi yillarda yo'l qurilishi va ta'mirlashga 61 trillion so'm ajratilgani, bu 2017-yilgacha bo'lgan raqamdan 3,5 barobar ko'p ekanini ham fikrimizni tasdiqlaydi. Onlayn murojaat tizimi ishga tushib, yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalariga keladiganlar 50 foiz kamaydi. Sohadaqi 3,5 mingga yaqin xodim elektron planshet va bodikamera bilan ta'minlandi. Qoidabuzarliklarni sun'iy intellekt asosida saralash va qaror chiqarish amaliyoti joriy qilindi. Shaharlarda jamoat transporti uchun maxsus yo'laklar ajratildi. Shu yilning iyun oyida haydovchilarga qator yengilliklar joriy etildi. Jumladan, birinchi marta huquqbuzarlik qilganlarni jazolash emas, ogohlantirish yo'lga qo'yildi.

**Sharof ISLOMOV,
podpolkovnik, IIV akademiyasi
magistraturasi bitiruvchisi:**



— Yurtimizda bir necha yil oldin jazo muqarrarligini ta'minlash maqsadida har bir huquqbuzarlik uchun jarima ballari tizimi joriy etilishi belgilangan edi. Unga ko'ra, haydovchi tezlikni oshirsa 1 ball, qizil chiroqda o'tsa 3 ball hisoblanadi. Agar bir yilda qoidabuzarliklar jami 12 ballidan oshsa, haydovchini avtomobil boshqarish huquqidan mahrum qilinadi va qayta imtihon topshiradi. Shuningdek, avtomobilni tartibsiz boshqarib, boshqa haydovchilarga xalqit qilganlik uchun alohida "yo'l bezoriligi" degan yangi javobgarlik turi kiritiltdi, bu "o'pkasi yo'q", "zo'ravonlar"ni ham tartibga soladi.

Yo'llarda haydovchilik madaniyatini oshirish juda dolzarb masala. 2024-yilda qariyb

20 millionta qo'pol qoidabuzarlik sodir etilgan. Ayrim haydovchilarda bu surunkali tus olgan.

Ularining aksariyatini avtomobil transportida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik, haqorat qilish, gaz moslamalaridan foydalanish qoidalarini buzish, transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi, transport vositalarini mast holda boshqarish kabilar tashkil etadi.

Endi ashaddiy huquqbuzarlarga qonun kuchini ko'rsatish maqsadida "Surunkali qoidabuzarlar" dasturi ishga tushiriladi. Qarama-qarshi tomonda harakatlanish, qizil chiroqda o'tish yoki tezlikni oshirish kabi qoidabuzarliklarni takroran qilganlar uchun bir yilgacha jarimadan chegirma berilmaydi. Bunday huquqbuzarliklar bir oy ichida 10 tadan ko'p bo'lsa, olti oygacha haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilinadi. Me'yordan 2-3 karra tez yurganlar haydovchilik huquqidan mahrum qilishgacha jazolanishi mumkin.

Qonunni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Chunki qonun — xalqning xohish-irodasi! Uni buzgan, mensimagan odam xalqning yuziga oyoq qo'yg'an kishidir. Savol tug'iladi: bular kimlar? Javob beramiz: bular qonunni, tartibni, insonlarcha yashash normalarini va o'zini hurmat qilmaydigan, qonunlarga bepisand kimsalardir. Ming afsuski, bizda qonunlarni mensimaslikka, ularni buzishga o'rganib qolganlar talaygina. Biz qonunni hurmat qilish, unga bo'yusinish, rioya qilish yo'lidan borsak, albatta, ularni tartibga olamiz.

**Azamat UMAROV,
podpolkovnik, IIV akademiyasi magistraturasi bitiruvchisi:**



yo'llarida inson hayoti va sog'lig'ini har qanday hodisalardan kafolati himoya qilish maqsadida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning dolzarb yo'nalishlari belgilangan. Avtomobil yo'llari infratuzilmasini takomillashtirish va sifatini yaxshilash, yo'l harakati ishtirokchilarining "piyoda — jamoat transporti — velotransport — avtotransport" ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratishga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilgan holda o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, haydovchi va piyodalarning yo'l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini oshirish, har qanday qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligini ta'minlash kabi vazifalar qo'yilgan.

Bundan tashqari, yo'l harakati qoidalariga so'zsiz qiyilishini ta'minlash hamda ularni takroran buzish holatlarining oldini olish maqsadida 2022-yil 1-dekabrda boshlab quyidagi tartibni nazarda tutuvchi haydovchilarga yo'l harakati qoidabuzarligi uchun jarima ballarini hisoblash tizimi joriy etilishi nazarda tutilgan: har bir yo'l harakati qoidabuzarligi uchun 12 oy davomida alohida jarima ballari hisoblab boriladi, hisoblangan jarima ballari belgilangan miqdordan oshgan hollarda haydovchi muayyan muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan o'rnatilgan tartibda mahrum qilinadi.

jismoniy, psixologik holati, o'zi boshqarayotgan transport vositasi, uning texnik holati, boshqa transport vositalari, transport harakatlanayotgan yo'l, tabiiy sharoit, yo'lovchi, piyodalar va hokazo.

Ko'cha va yo'llardagi tartibbuzarlar ham o'zimizdan chiqqan shaxslar, odamlar. Demak, biz ular bilan birga yashashimiz, yetilgan barcha muammolarni birgalikda hal qilishimiz kerak. Odamlarni huquqqa zid xatti-harakatlardan to'xtatib qolishda huquqiy targ'ibot, ta'lim-tarbiya ishlari ta'sirchanligini oshirishimiz zarur. Bu juda mas'uliyatli burch.

9-iyul kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bir necha masala oydinlashtirildi: ayrim hollarda qoidabuzarlik uchun oradan bir necha oy o'tgach, jarima qo'llash qarori chiqarilayotgani tushunmovchilik va e'tirozlarga sabab bo'layotgandi, ushbu muammo yechimi topilib, endilikda qoidabuzarlik sodir etilgan kundan boshlab

bir oyda qaror chiqmasa, haydovchi hech qanday jarima to'lamasligi belgilandi.

Hozirgi kunda xavfsizligi zo'r, zamonaviy mashinalar kun sayin ko'payib borayotgani inobatga olinib, hududlar o'rtasidagi ko'p yo'llar yuqori tezlikda harakatlanish talablariga bemaol javob berishi va shu bois, tezlik cheklavlarini qayta ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Mamlakatimizda haydovchilarni tayyorlash bo'yicha yangi tizim samara bera boshladi. Lekin piyodalar, ayniqsa, yoshlarning bu boradagi bilim va intizomini oshirish zarurligi qayd etildi. Shu maqsadda maktab va bog'chalarda harakat xavfsizligi bo'yicha dasturlar yangilanadi. "Yashil chiroq" musobaqalari qayta tiklanib, respublika g'oliblariga Prezident sovg'asi beriladigan bo'ldi. Yo'l harakati qoidalar bo'yicha video va animatsion kontentlar yaratilishi vazifa etib belgilandi. Ushbu tizimli ishlar esa, albatta, o'z samarasini beradi.



**Farhod UMAROV,
mayor, IIV akademiyasi magistraturasi
bitiruvchisi:**



— Yo'l-patrul xizmati tizimida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish masalasini yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni kamaytirish va aholi o'rtasida ishonchni mustahkamlashning muhim omil sifatida keltirishimiz mumkin. Shu bois, xodimlarning nazariy bilimlarini, amaliy ko'nikmalarini va ma'naviy-axloqiy

fazilatlarini uyg'un rivojlantirish tizimli va uzluksiz jarayon bo'lib qolishi lozim.

Bu xizmat xodimlari nafaqat harakatni tartibga solish, balki yo'llarda qonuniyligni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va jamoat tartibini saqlash vazifalarini ham amalga oshiradi. Shu bois, ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

Deylik, yo'llarda tez va samarali qaror qabul qilish, ziddiyatli vaziyatlarda o'zini boshqara olish va xizmatning yuqori bosimli sharoitida ham samarali ishlash qobiliyatiga ega bo'lish, zamonaviy tizimlar, masalan, videokuzatuv, yo'l harakati nazorati vositalari (radarlar, videoregistrator, planshet, tonometr va boshqa zamonaviy uskunalardan foydalanish bilimlarini egallash, ularni amaliyotda to'g'ri qo'llash hamda boshqa ko'plab talablarga javob beradigan darajada malaka va ko'nikmalar egasi bo'lishlari lozim.

Xitoyda YPX inspektorlariga qo'shimcha ravishda yordamchi inspektor lavozimi joriy etilgan. Bu xodimlar alohida maxsus xizmat kiyimi, radioaloqa vositasi va bodikameralar bilan ta'minlanib, faqat kichik ko'chalarda tirbandliklarning oldini olish, harakat ishtirokchilarining madaniyatini oshirish uchun targ'ibot va tashviqot ishlariga jalb qilinadi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari diqqat-e'tiborini, birinchi navbatda, inson hayoti, xavfsizligini ta'minlash muammolarini hal etish, qonuniylik va huquq-tartibotga rioya qilishga qaratayotgan bir paytda biz — jamiyatning har bir a'zosi o'zimizni isloh etib, loqaydlik, befarqlik illatidan xoli bo'lib yashashga o'rganishimiz kerak!

**Davra suhbatini "Yangi O'zbekiston" muxbiri
Nodir MAHMUDOV yozib oldi.**



YANGI O‘ZBEKISTON

Dolzarb 90 kun

TA'LIMDA MUHIM DAVR YOZNI IMKONIYATGA AYLANTIRISH FURSATI



Otabek YUSUPOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti prorektori

Avvalo, ta'kidlash kerakki, tashabbus ta'lim jarayonini yozgi davrga integratsiyalashtirishda muhim qadam bo'ldi. Bu rasmiy yondashuvdan faol, mazmunli va talab yuqori bo'lgan yangi tizimga o'tishni namoyon etdi. Vazirlklar, maktablar va universitetlar jamoasi o'z zimmalariga ta'lim dasturlarini ishlab chiqishdan tortib, bolalar va yoshlarning faol mashg'ulotlari uchun yangi innovatsion formatlarni joriy etishgacha bo'lgan aniq vazifalarni yuklab oldi.

Yozgi ta'tilga endi faqat o'qishdan tanaffus emas, ayni paytda ta'limning yangi modelini joriy etish imkoniyati sifatida qaralyapti. Shu nuqtayi nazardan, “Dolzarb 90 kun” loyihasi navbatdagi kampaniya emas, balki mamlakat ta'lim manzarasini qayta shakllantirishga qaratilgan strategik platformaga aylandi.



Yangi yondashuv ta'lim jarayoni faqat o'quv yili bilan cheklanmasligini tan oladi. Yozgi vaqt standart dasturlardan o'rin olmaydigan ko'nikmalarni rivojlantirish, ijodiy ta'lim usullarini joriy qilish va bolalar, o'qituvchilar hamda mahalliy jamoalar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun noyob imkoniyatdir.

Loyiha shaxsiyatni har tomonlama rivojlantirish maqsadida davlat, ota-onalar va o'qituvchilar sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi vositaga aylandi. An'anaviy ravishda yoz ta'lim tizimida dam olish bilan bog'lansa-da, “Dolzarb 90 kun” bu qolipni buzdi. Loyiha ta'tillarni bekor qilmasdan, ularni mazmun bilan to'ldirib, barcha ta'lim bosqichlarini — bolalar bog'chasidan tortib oliygo'harlarga qamrab oldi. Tarbiya, ta'lim va ijtimoiy tarkibni uyg'unlashtirdi. 1200 dan ortiq maktablarda tashkil etilgan kunduzgi oromgohlar 170 mingdan ziyod bolani qamrab oldi. Ota-onalar ishlayotgan paytda bolalarning e'tibordan chetda qolishi muammoisiga amaliy yechim bo'ldi. Bolalar to'garaklar, til va madaniyat shaxsiyalarida, sport musobaqalarida ishtirok etmoqda, barcha tadbirlar ixtiyoriy va ota-onalarning roziligi bilan o'tkaziladi.

Shu tarzda “Dolzarb 90 kun” ta'lim jarayoni ishtirokchilarining har biri o'ziga xos rolni topadigan tizimni qurmoqda. Maktablar bilim olish maskani bilan bir qatorda mulqot, ko'mak va iqtidorni rivojlantirish joyiga aylanayotir. Bolalar har tomonlama rivojlanish, talabalar nazariyani amaliyotda qo'llash, o'qituvchilar esa an'anaviy chegaralardan tashqarida tashabbus ko'rsatish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu ta'lim jamoasi ichida yangi o'zaro hamkorlik madaniyatini shakllantiryapti.

Loyiha doirasida amaliy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Oliygo'harlar ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqib, yozgi davrda bilimlarni qo'llashga qaratilgan audit o'tkazmoqda. Masalan, pedagogika yo'nalishidagi talabalar yozgi amaliyotni o'tab, tadbirlarda ishtirok etmoqda va maktab o'qituvchilariga bolalarning bo'sh vaqtini tashkil qilishda yordamlashmoqda.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalari o'z viloyatlaridagi maktablarga qaytib, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llamoqda. Bu nafaqat mintaqaviy ta'lim rivojiga hissa, balki kelajakda kasbni yanada teran anglash, mas'uliyat va yetakchilik qobiliyatini shakllantirishda

ijtimoiylashuv, kasbiy yo'nalishni aniqlash, madaniy boyitish va shaxsiy o'sish resurslariga aylantirish mumkinligini ko'rsatib beradi.

Loyihaning eng muhim yutuqlaridan biri ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida ochiq mulqot platformasining shakllanishi bo'ldi. O'qituvchilar, ota-onalar, talabalar va bolalar o'zlarini umumiy maqsad — zamon talablariga moslashish bilan birga mamlakat kelajagini faol ravishda yarata oladigan avlodni tarbiyalashda ishtirokchi sifatida his etadi.

Hududlardagi qo'shma tashabbuslar tufayli har bir mintaqaga loyiha g'oyalari o'zining madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga muvofiq tarzda amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Tashabbus ta'limda o'zgarishlar siyosiy iroda, jamiyat ko'magi va yangilikka intilish mavjud bo'lganda amalga oshishi mumkinligini namoyon etdi. U kelajak islohotlari uchun sinov maydoni bo'lib xizmat qildi: yozda bolalar va yoshlarni bilim va ijod muhitiga jalb etish ularni ruhlantirish bilan ta'limning uzluksiz xavfsiz sifatidagi qiymatini anglashga yordam beradi.

XXI asming barcha sohalarida talab etiluvchi sifatlar yoshlar orasida mustaqil fikrlash, jamoaviy ishga tayyorlik va qaror qabul qilish qobiliyati orqali shakllantiriladi. O'zbekiston zamon talablariga javobni an'analardan voz kechish emas, balki ularni qayta anglash va rivojlantirish orqali berish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Ta'lim jarayoniga fuqarolik jamiyati va ota-onalarni jalb etish ishonchni mustahkamlash va ishtirok madaniyatini shakllantirishda muhim omilga aylandi. Jamiyatning qancha ko'p qatlami ta'lim islohotlariga o'zini daxldor his qilsa, tizim shuncha barqaror bo'ladi.

“Dolzarb 90 kun” ta'limning maktab devorlaridan tashqariga chiqib, umummilliy ishga aylana olishining yorqin namunasi bo'ldi.

Kelajakda bu kabi loyihalar tajriba almashish, qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va xalqaro yozgi oromgohlar tashkil etish orqali transchegaraviy hamkorlik poydevoriga aylanishi mumkin. Shunday qilib, O'zbekistonda boshlangan bu tashabbus mintaqaviy miqyosdagi harakatga aylanib, davlatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlaydi va yoshlar uchun yagona rivojlanish fazosini yaratadi deb ishonamiz.

KO‘ZGU

“Zamonaviy jamiyat mo‘rt. Globalizatsiya davrida milliy madaniyatlar imkoniyatini boy beryapti. Bu manqurtlikka olib kelishi mumkin. Barcha madaniyatlar bitta ommaviy madaniyat siquvi ostida qolmoqda”, degandi ulug‘ yozuvchi Chingiz Aytmatov.

Mushohada

Yozuvchi bu so‘zlarni aytgan vaqtda dunyo hali raqamli inqilob domiga to‘liq kirib ulgurmagan, insonlar qo‘lida smartfonlar bo‘lmagan, internet hayotning ajralmas qismiga aylanmagandi. Ammo u kelajak tahdidlarini chuqur his qilgan, ular qanday oqibatlariga olib kelishini oldindan anglay olgan yetuk tafakkur egasi edi. Bugun u ogoh etgan manzara ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lmoqda. Afsuski, ommaviy madaniyat va uning chegarasiz targ‘ibotchisi hisoblanmish ijtimoiy tarmoqlar qurboni ko‘proq yoshlar bo‘layotgani har kimda xavotir uyg‘otmoqda.

Bolalik deganda ko‘pchilikning ko‘z oldida beg‘ubor, samimiy manzara namoyon bo‘ladi. Kimdir xotirasida tuproq ko‘chalarda oyog‘yalang yugurib yurgan bolalarni, boshqalar esa bobo-buvilar ertaklari ila kechgan tinch tunlarni yodga oladi. Yana kimdir bog‘cha yoki maktabdagi dastlabki taassurotlarini eslaydi. Ya‘ni bolaning dunyoqarashi xalq o‘yinlari, madaniy muhit va hayotiy mulqotlar orqali shakllanardi. Varrak uchirish, arqon tortish, berkinmachoq kabi o‘yinlar bolaga hayotni anglashni o‘rgatar, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam berardi.

Biroq bugungi manzara tamoman boshqacha. Texnologiya asrining bolasi real hayot emas, aynan virtual olamda ulg‘aymoqda. U o‘z dunyosi va qadriyatlarini tabiat yoki jamiyatdan emas, ko‘p hollarda ekran orqali shakllantirmoqda. Harakatlar sun‘iy, munosabatlari sovuq, quvonch esa ko‘pincha filtrlangan harakatga o‘xshaydi.

Aytmatov ishora qilgan manqurtlik bugun o‘z tarixi, ildizlari va madaniyatiga nisbatan nafaqat befarq, balki ularni bilishni ham istamaydigan, ekranda ko‘rayotganini yagona haqiqat deb qabul qiladigan inson timsolida namoyon bo‘lmoqda. Bunday inson g‘oyaviy “ko‘rsatmalar”ni telefon orqali oladi, ularga ergashadi, hatto hayotini shular asosida qurmoqchi bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda har kuni namoyon bo‘layotgan “trendlar”, “mukammal hayot”, “qanday yashash kerak?” kabi yengil, yuzaki g‘oyalalar ko‘plab yoshlarning yagona hayotiy mezoniga aylanmoqda.

Natijada yoshlar hayotni yengil baholashga odatlanmoqda, ruhiy iztiroblarini ichga yutib yashamoqda, ba‘zi hollarda yot va buzuq g‘oyalarga ergashmoqda. Eng achinarlisi, o‘z joniga qasd qilish kabi fojiaiy yo‘lni tanlash holatlari ham ortib bormoqda. Bunday voqealar ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez ko‘rinyapti va ular endi tasodif emas, balki umumijamiat darajasidagi xavfli muammoa aylanib ulgurdi.

Ko‘sh, nega bolalar ko‘z o‘ngimizda virtual olam domiga botib bormoqda? Nima uchun ular hayot, tarix, oila va milliy qadriyatlarga nisbatan befarq? Bu savollar barchamizni o‘ylantirishi, beparvo qoldirmasligi kerak. Chunki bu butun jamiyat kelajagi bilan bog‘liq masala.

Yolg‘izlik — ekran ortidagi eng xavfli hamroh

Bugungi kunda internet orqali aksariyat yoshlar til, zamonaviy kasblar va inson kamoloti uchun zarur boshqa qator yumushlarni o‘rganayotir. Ammo tanganing ikkinchi tomoni bor. Bu qulayliklar ortida ko‘zga ko‘rinmas xavflar yuzaga kelmoqda. Masalan, kiberzo‘ravonlik — virtual zo‘ravonlik tahqir va bosimning zamonaviy ko‘rinishidir. U ko‘pincha ota-onalar va o‘qituvchilarning ko‘zidan yashirin bo‘ladi, lekin bola ruhiyatida chuqur iz qoldiradi.

Masalan, biror bolaning suratini kulgili yoki uyatli holatda ijtimoiy tarmoqqa joylash, u haqida yolg‘on ma‘lumot tarqatish, tahdidli xabarlar yozish, guruh bo‘lib uni maxsara qilish kabilar tez-tez uchrab turadi. Albatta, bu kabi holatlarni sodir etganlarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rilmoqda, ammo ko‘pincha ular bolaning o‘zi tomonidan sir tutuladi.

Kiberzo‘ravonlik bolani hech qayerda yolg‘iz qoldirmaydi: u uyda, kechasi, hatto dars paytida telefon orqali bolaga bosim o‘tkazishda davom etaveradi. Bola o‘zini har yerda kuzatuv ostida, maxsara markazida va yolg‘iz his etadi. Internetda biror ma‘lumot tarqalgach, uni nazorat qilish yoki to‘xtatish deyarli imkonsiz, bu esa bolada nafaqat o‘zini himoyasiz, balki butunlay oji his qilish tuyg‘usini uyg‘otadi. Ayniqsa, agar uning do‘stlari, sinfdoshlari yoki tanishlari maxsaraga qo‘shilsa, bu ruhiy zarbaning ta’siri bir necha barobar oshadi. Bunday holatda bola kimga ishonishni, kimdan yordam so‘rashni bilmay qoladi.

“E’tibor berma”, “ahmoqona gap-da” kabi oddiy maslahatlar bunday murakkab holatda samarasiz bo‘ladi. Chunki kiberzo‘ravonlik bolaning nafaqat dunyoqarashi, balki o‘z-o‘ziga ishonchini va jamiyat bilan aloqasini izdan chiqarishi mumkin. Ayrim o‘smirlar esa bunday muammordan chiqish uchun maktabdan uzoqlashish, jamiyatdan chetlanish, eng ayanchlisi, hayotni tark etishgacha boradi.

2025-yil 23-iyul, 149-son

5

VIRTUAL OLAM IMKONIYATMI YOKI XAVF?

Kiberzo‘ravonlikning eng ayanchli jihati shundaki, uni kattalar ko‘pincha kech payqaydi. Bolalarning raqamli makondagi xavfsizligi va ruhiy salomatligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Shunday vaziyatda texnologiyalardan sog‘lom foydalanishni o‘rgatish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur.

Har bir bola telefonni ko‘lga olganida, u faqat ma‘lumot emas, ishonch va xavfsizlik hissini ham tuyushi kerak. Chunki ekran ortidagi har bir tahdid, sha‘nga qilingan munosabat nafaqat ota-onalar, balki butun jamiyat zimmasidagi mas’uliyatdir.



Internetni emas, beparvolikni cheklash kerak

Bugungi zamon ota-onalar uchun ham talab va mas’uliyatlar bilan to‘la davr. Ish, dam olish, turli ijtimoiy va iqtisodiy vazifalar ularning vaqti va e’tiborini ko‘p talab qiladi. Shu bois, aksar oilalarda ota-onalarning bolalarga e’tibori kamayib bormoqda. Bu esa yosh avlodning ruhiy va ma’naviy tarbiyasida katta bo’shliqlarga olib keladi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda rivojlangan davlatlarning biridagi voqeaga ko‘zim tushdi. U yerda bolalar uchun barcha sharoitlar yaratilgan, zamonaviy ta’lim tizimi joriy qilingan. Bu kabi imkoniyatlarga qaramay, ko‘p bolalar erkinlik niqobi ostida ko‘cha hayotini tanlamoqda. Ular uchun oila va ota-onalarga hurmat qadriyatari qadrsizlanib, oilaning jamiyatning asosiy ustuni sifatidagi o‘mi yo‘qolmoqda. Yoshlarning ko‘pchiligi yetarli ruhiy tarbiya va qo‘llab-quvvatlovsi, yengil hayot tarzini afzal ko‘rmqda.

Ko‘cha hayoti, jamiyatdan uzilish va ma’naviy bo’shliq ularning kelajagini tortib olayotgani shubhasiz. Ko‘p bolalar intemet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatlayotgan zararli g‘oyalarga osonlikcha qo‘shilib, o‘zini noto‘g‘ri yo‘lda topmoqda. Bu esa faqat texnologiyaning ta’siri emas, balki ota-onalar va jamiyatning beparvoligidan kelib chiqadi.

Shuning uchun biz internetni emas, beparvolikni cheklashimiz kerak. Bolalarga, eng avvalo, hurmat, mehru-muruvvat va diqqat zarur. Zero, oila yoshlarning birinchi va eng muhim maktabi. Ota-onalar o‘z vaqti va kuchini bolalar bilan mustahkam aloqa o‘rnatishga bag‘ishlashi kerak. Shu orqali ularning hayotga qarashlari, milliy va ma’naviy qadriyatlarga munosabati shakllanadi.

Haqiqiy erkinlik nafaqat texnologiyalardan erkin foydalanish, balki o‘zligiga sodiq qolish, oila va jamiyat bilan bog‘liqlikni anglashdir. Shuning uchun internetdan emas, beparvolikdan saqlanaylik va yosh avlodimizni haqiqiy ma’noda baxtiyor kelajakka tayyorlaylik.

Bolalar baxtni “layk” va “ko‘rish soni”dan izlamasligi lozim

Bolalarning hayot haqidagi ilk tasavvurlari real voqeikndan emas, balki ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanmoqda. Ular uchun “haqiqat” ko‘pincha Instagram tasmlaridagi silliqilgan suratlar, TikTokdagi

trendlar yoki YouTube-dagi mashhurlik va boylik haqida gapiruvchi videolar bilan chambarchas bog‘liq. Bu sun‘iy virtual olam go‘yoki faqat baxti, muvaffaqiyatli, go‘zal va mukammal insonlar bilan to‘la. Bolalar aynan mana shu ideal obrazlar bilan o‘zini taqqoslashga majbur bo‘lib qolmoqda.

Ko‘p hollarda bolalar real hayotini bu mukammallik timsollari bilan solishtirib, o‘zini past baholay boshlaydi. “Nega menda bu yo‘q?”, “Nega men u kabi baxtli emasman?” kabi fikrlar ularning ruhiyatini yemirib boradi. Har kuni mukammal hayotni tomosha qilayotgan bola o‘zining oddiy hayotini muvaffaqiyatsizlik deb qabul qila boshlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi “ideal hayot” aslida bir necha soniyali videolar, filtrlangan suratlar yoki sahnalashtirilgan lavhalardan iborat. Ammo bola buni haqiqat sifatida qabul qiladi. Natijada o‘z qadriini faqat “layk”, “ko‘rish soni” yoki “izohlar” orqali baholay boshlaydi. Bu raqamlar kamayganda esa u o‘zini keraksiz, arziimas deb his qiladi.

Eng achinarlisi, ba‘zan ijtimoiy tarmoqlarda o‘z joniga qasd qilish mavzusi ham romantiklashtirilib ko‘rsatilmoqda. “Bu mening tanlovim”, “Hayotda ma’no yo‘q” kabi dramatik xayrlashuvlar, hatto joniga qasd qilish jarayoni videolari ba’zi bolalarda bu holatni hissiz qabul qilishga sabab bo‘lmoqda. Ruhiy jihatdan zaif bolalar bunday kontentdan kuch emas, yo‘qotish “ilhom” olishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda nafaqat boylik va go‘zallik “ideal” sifatida targ‘ib qilinadi, balki zararli g‘oyalalar ham bolalar ongiga singdiriladi. Ba‘zan erkinlik niqobi ostida ijtimoiy mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik, hissiy ehtiyojlar normal hol sifatida namoyon qilinadi. Oqibatda bola o‘z hayotining asl maqsadini anglashdan tobora uzoqlashadi.

Shu bilan birga, bolalar ijtimoiy tarmoqlarda qanday ko‘rinish olishi, qanday kontent joylashi, qanday “mashhurlik”ka erishishi haqida bosh qotirishga odatlanadi. Bu esa ularning ichki dunyosi, ruhiy barqarorligi, hayotiy qadriyatlarini so‘ndirib boradi. Virtual olamda ko‘rishlar ko‘p, lekin tushunish yo‘q. Do‘stlar ro‘yxati uzun, ammo samimiy shubhatdosh topilmaydi.

Afsuski, ota-onalar bu jarayonni ko‘pincha kech payqaydi. Bola qulog‘ida quloqchin, ko‘zida ekran, ongida esa yolg‘iz bo‘ladi. U hissiy muammolarini ijtimoiy tarmoq qoidalarini asosida hal qilishga urinadi, real hayotidagi munosabatlardan tobora uzoqlashadi.

Ular ni bu yolg‘on olamdan asrash uchun sun‘iylik va haqiqat o‘rtasidagi farqni anglatish, mehr, samimiylik, mehnat va sabr kabi qadriyatlar bilan tanishtirish muhim. Zero, inson hayotini virtual qiyoslar bilan emas, o‘z mehnati bilan qurishi kerak.

Har bir bola individual, har bir ehtiyoj ahamiyatli

Maktab bolaning bilim olishi, ijtimoiylashuvi va dunyoqarashini shakllantiruvchi eng muhim maskanlardan biridir. Ammo maktab faqat darslik yodlash yoki test topshirish markazi bo‘lib qolmasligi kerak. U bolaning ruhiy salomatligi, hissiy rivoji va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Bolalarning sinfda yoki tanaffus paytida duch kelayotgan muammolari ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. O‘qituvchilar esa haddan tashqari yuklama ostida bo‘lib, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga vaqt ajrata olmaydi. Dars o‘tish va baho qo‘yish ustuvor vazifaga aylangan.

Maktabda ruhiy salomatlikka oid dasturlar, hissiy intellektni rivojlantirish, mulqot madaniyati, stressni boshqarish, shaxsiy chegaralarni hurmat qilish kabi mavzular yetarlicha o‘rin olmayapti. Bu esa bolalarda jamiyatda o‘zini qanday tutish, boshqalar bilan qanday sog‘lom aloqa o‘rnatish borasida bo’shliq vujudga keltirmoqda.

Shuningdek, kiberzo‘ravonlik va ijtimoiy tarmoqlarning zararli ta’siriga qarshi maktabda aniq strategiyalar yo‘q. Ko‘plab o‘qituvchilar bunday holatlarni aniqlash yoki unga to‘g‘ri munosabat bildirish bo‘yicha yetarli bilimiga ega emas. Natijada bunday holatlar vaqtda aniqlanmaydi, bu esa bolaning ruhiy salomatligini xavf ostiga qo‘yadi.

Shu bois, ta’lim dargohi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Balki ruhiy jihatdan xavfsiz, samimiy, ishonchli ikkinchi uyg‘a aylanishi lozim. Aks holda, u nafaqat bir bolaning taqdirini, balki jamiyatning kelajagini xavf ostiga qo‘yadi.

Zamonaviy jamiyat, oila va ta’lim tizimi bolalarni internetdan faqat bilim olish uchun emas, balki sog‘lom va xavfsiz foydalanishga o‘rgatishga katta e’tibor qaratishi zarur. Yoshlarga milliy madaniyat, qadriyatlar, haqiqat va sun‘iylik o‘rtasidagi farqni tushuntirish, mehr-muhabbat, samimiylik va jamiyatdagi o‘rnini anglatish muhim.

Shu tariqa yoshlar virtual olamning zararli ta’sirlaridan asraladi, o‘zini himoya qilish qobiliyatini oshiradi va haqiqiy hayotda muvaffaqiyatli, sog‘lom fuqarolar bo‘lib ulg‘ayadi. Ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat hamkorligi, mas’uliyatli va diqqatli munosabati bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Virtual olamdan imkoniyat sifatida foydalanilishi va yosh avlodning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi uchun barcha sohalarida mustahkam tizim va tarbiya bo‘lishi shart. Bu jamiyatning kelajagini saqlash va taraqqiyotning barqarorligini ta’minlashning muhim omilidir.

Texnologiyalardan foydalanishda mas’uliyatni oshirish, internetni sog‘lom va xavfsiz muhitga aylantirish uchun ham ota-ona, ham maktab, ham jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Bolaga zamonaviy bilim va ko‘nikmalar berish bilan birga uning ruhiy salomatligini muhofaza qilish va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash biz uchun eng katta vazifa bo‘lishi kerak.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!



(“Soʻz latofati” kitobidan)

Atamak ehtiyojidan soʻz paydo boʻlar ekan. Oʻzimiz yashab turgan joyga nom berish bizning oʻzimizga kerak emas. Shahar, qishloqlarga uzoq-yaqin qoʻshnilar ot qoʻyadilar. Azbaroyi boshqa joylar bilan adashtirmaslik uchun. Yerlik xalq oʻz yerini izlamaydi, adashtirmaydi.



Odamdodni oʻrab turgan ming-minglab narsa va hodisalarni atash zarurati bois tillar yaralgan. Zamon-zamonlar oʻtib, insoniyat taraqqiy etgani sari bu ehtiyoj ortgan va kengayib borgan. Bugungi ilm-fan rivoji, xalqaro aloqalar, huquqiy munosabatlara taraqqiyi bu zaruratni oʻn karra, yuz karra oshirdi. Har yangi tushunchaning jahon sahnida paydo boʻlishi tilshunoslarga oʻz ona tili imkoniyatlarini tahlil qilish, “choʻntakni kovlab koʻrish” ehtiyojini yaratadi. Bunday vaqtda, avvalo, bor boricha, yoʻq holicha ish tutadi. Qolaversa, tilshunoslikda ustun dunyoqarash, olimlarning darajasi va hafsalasi bilan bogʻliq omillar oʻrtaga chiqadi. Oʻzimizga oʻxshagan dangasalarga maza. Xalqaro atamaning oʻzini qoidaga kiritamiz-qoʻyamiz. Tilimizda shu tushunchani ifoda qiladigan soʻz bormikin deb oʻylab oʻtirmaymiz. Izlamagan xato qilmaydi. Xato qilmaganing qulogʻi tinch, oʻzi xotirjam boʻladi. Qiyin boʻlganda kimga qiyin? Oriyatli, gʻururli, oʻz ona tilining qadri-qiyamati uchun qaygʻuradigan, talashadigan olimga, ziyoliga qiyin.

Aslida, biz oʻzimiz dangasa emasmiz. Bizni shoʻro mafkurasi dangasa qildi. Har qanday milliy qadriyat uchun qaygʻurish, kurashish millatchilik hisoblandi. Atamak ehtiyoji ham oʻldirildi. Natijada tilimizga “nooziq-ovqat mahsulotlari” kabi oʻxshovsiz tarjima soʻzlar kirdi. Bu tushunchaning oʻzbekchada oti bormi, tilimizda insoncha qilib aytasa nima boʻladi deb oʻtirmadik.

“

Aslida, biz oʻzimiz dangasa emasmiz. Bizni shoʻro mafkurasi dangasa qildi. Har qanday milliy qadriyat uchun qaygʻurish, kurashish millatchilik hisoblandi. Atamak ehtiyoji ham oʻldirildi. Natijada tilimizga “nooziq-ovqat mahsulotlari” kabi oʻxshovsiz tarjima soʻzlar kirdi. Bu tushunchaning oʻzbekchada oti bormi, tilimizda insoncha qilib aytasa nima boʻladi deb oʻtirmadik.

mahsulotlari” kabi oʻxshovsiz tarjima soʻzlar kirdi. Bu tushunchaning oʻzbekchada oti bormi, tilimizda insoncha qilib aytasa nima boʻladi deb oʻtirmadik.

Qadimdan ijodkor xalqimiz yaratgan goʻzal atamalar bor. Eng koʻhna ijod namunasi charxpalak atamasiga eʼtibor bering. Osmon aylanadi, suv aylanadi, suvga oʻmatilgan koʻtagʻich gʻildirak ham aylanadi. Qancha tashbeh, falsafa, fasohat bor shu bir soʻzda. Koʻkdagi qoʻzgʻalmas yulduz — oltin qoziq boʻladi, sochilgan yulduzlar somonchining yoʻli ataldi. Yoʻl majnuni toʻkilib qolgan somonga oʻxshatildi. Yajunntol, mirzatearak kabi daraxt nomlari, nomozshomgul, guli qah-qah — avom tiliga gulqoqi boʻlib oʻtgan, gultojxoʻroz, boychechak singari gul nomlari naqadar goʻzal va maʼnoli!

Bir zamonlar arabcha shay, forsha chiz, inglizcha thing, ruscha beu tushunchasini ifoda qiluvchi bir soʻz tilimizda yoʻq edi. Atamak ehtiyoji bu soʻzni yaratgan. Mumtoz adabiyotimizda mavjud asl turkiy kalima **na ersa** “labbay” deb yordamga kelgan va **narsa** degan soʻz paydo boʻlgan. Biz bugun har lahza ishlatadigan bu soʻzning yaralish tarixi toʻgʻrisida oʻylamaymiz ham.

Na ersa narsaga aylanganidek, **kim ersa kimsa** shaklini oldi va narsa bilan esh boʻldi. Bu soʻz oʻzining avvalgi ulugʻvorligini

foydali keltiruvchi ishimizdan kechib kimningdir koʻnglini olamiz.

Bahr nima? Biz bu soʻzning dengiz maʼnosini bilamiz. Bu maʼno **bahridan oʻtish** iborasidan juda yiroq. Erinmay lugʻatlarga qaragan odam **bahr foyda**, ulush maʼnosida ham kelishini bilib oladi. Hozirgi tilimizda **bahra**, **bahramandlik**, **bebahra** soʻzlari bor. **Bahra** va **bahr** bir soʻzning shakllari. Tilimizda foyda maʼnosidagi **bahr** faqat shu bahridan oʻtish degan iborada qolibdi.

Oʻxshatish va **qiyoslashning** maʼnosi bir. Lekin **oʻxshovsiz** bilan **beqiyos** soʻzlarning farqi yer bilan osmon. Yostigʻini quritish nima? Kurashning kengaygan maʼnosi. **Bellashuv** faqat kurashga oid soʻz shaxmatga ham, futbolga ham, hatto askiyabozlikka ham koʻchgan. “Aytisuvda Sabit bilan bellashuvga yarayman”, degan Gʻafur Gʻulom. Vaholanki, belbogʻdan ushlab koʻtarib yiqitish faqat kurashda bor. **Tortishuv** soʻzi ham aslida kurashga oidmi? Belbogʻdan ushlab tortish kurashning belgisi. Lekin tortishuvning boshqa xili ham bor. Tortishmachoq. Toʻyda kuyov va kelin tomon arqon tortishib bahs qiladilar. Tortishuv shu soʻzdan boʻlsa ajab emas.

Erkin VOHIDOV,
Oʻzbekiston xalq shoiri

MA'NAVIYAT

YANGI O'ZBEKISTON

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz

Mutolaa zavqi

Oʻzbek oilalarida hamisha otaning oʻrni yuksak qadr-qimmatga, hurmat-eʼzozga loyiq tarbiya asosi boʻlib kelayotir. Ustoz Abdulla Oripov “Ota maqomi” sheʼrida yozganidek: Otaning maqomi Hazrat Odamdan, Uni yosh-qarisi yoʻqdir, shuni bil!

Onalarni qanchalar yuksaklarga koʻtarib eʼzozlamaylik, qadrlamaylik, oila boshqaruvi va bola tarbiyasida otaning mehri va vazifasi juda yuksakligiga guvoh boʻlamiz.

Ibrat kitobi

YOXUD KUCHLI ODAMLAR HAMISHA ODDIY BOʻLADI

Har qanday katta-kichik masalalarda onalarimiz ham “Oʻtandagan soʻrash kerak” yoki “Oʻtandagan nima derkan”, deb maslahatga oshiqadilar.

Taniqli jurnalist, samimiy inson va kamtarin hamkasbimiz Baxtiyor Hasanovning otasi — davlat va jamoat arbobi Madaminjon Hasanov haqida yozgan “Oʻtandagan qolgan hikoyalar” kitobini qiziqish va hayajon bilan oʻqir ekanman, xayolimdagi yuqoridagi fikrlar bir-bir oʻta boshladi. Ota ulugʻ zot. Uning oʻrnini hech kim bosolmaydi.

Kitob qahramoni katta va nufuzli lavozimlarda ishlagan, el-yurt oʻrtasida ancha-muncha martabaga erishib, yuksak hurmat va obroʻga ega boʻlgani bilan hech qachon kibrga berilmay, oddiy, samimiy va kamtarin hayot kechirgani bois, kitob ham juda samimiy, mehri bilan yozilgan. Voqealar otaning bebaho hayotiy hikoyalari orqali yorqin ochib berilgan. Har bir satrda oddiy otaga boʻlgan farzandning samimiy fikrlari yaqqol sezilib turibdi.

Madaminjon Hasanov bolaligidan hayot qiyinchiliklarini juda erta anglab yetgan, yoshlikdan ogʻir mehnat qilishni boshlagan, maktabda chiroyli va bexato yozgani tufayli kolxoz raisi sakkizinchi sinfda uni hisobchiga yordamchi qilib qoʻyadi. Asosiy maqsadi bilim olish boʻlgani sababli aʼlo baholarga oʻqigan. U 1942-yilda oʻninchii sinfini bitirib, uyda qolganlariga sezdimasdan harbiy xizmatga — urushga oʻz xohishi bilan ketish toʻgʻrisida ariza yozadi.

Oʻsha ogʻir yillarni ota shunday hikoya qiladi: “Bir kuni kechasi uygʻonib ketdim. Onam ustimda oʻtkir bolta koʻtarganicha koʻyoshlari bilan menga pichirladi: “Oʻgʻlim, qoʻrqma, men bir qoʻlingni yoki oyoq barmoqlaringni chopib tashlayman, keyin seni urushga olib ketishmaydi”. Bu dardli satrlarni oʻqish naqadar ogʻir. Lekin uning taqdirida urushga borish yozilganini otaning hikoyasi davomidan bilish mumkin: “1943-yil boshida merganlar (snayper) tayyorlash uchun boʻlinmamizdan bir necha guruh tanlab olindi va men ham ular orasida edim. Mashgʻulotlardan soʻng bizni uchinchii Belarus fronti tarkibida jang maydoniga tashlashdi...”.

Madaminjon Hasanov keyinchalik urush olovida kechgan xizmatini Boltiqboʻyi davlatlari, shuningdek, Polsha va Germaniyada davom ettirib, buyuk gʻalaba kunini Germaniyaning Kyonigsburg shahrida nishonlaydi...

Urushdan keyin tugʻilgan yurtaga qaytib, Andijon viloyatining Qoʻrgʻontepa tumanidagi yagona sanoat korxonasi — “Tarandubitel zavodida laborant vazifasida qizgʻin ish boshladi. Shu bilan uning katta va mashqatqatga toʻla uzun, nurli hayot yoʻli boshlandi.

Kitobni zavq bilan oʻqish jarayonida oʻquvchining xotirasida qoladigan “Uzunning toki” deb nomlangan teran bob bor. Unda Madaminjon Hasanov Qoʻrgʻontepa RayPOsi raisi lavozimida ishlagan davri haqida hikoya qiladi ekan, shunday bir ibratli voqeani eslaydi. U kishi har kungi ishini ochiqkoʻngil idora qorovuli bilan suhbatlashib, bir piyola choy ichishdan boshlar ekan. Bir kuni soʻrida gaplashib oʻtirishsa keksa bir ayol, bir dasta uzum tokining niholini toʻrgʻa koʻtarib sotgani bozorga olib ketayotgan ekan. Madaminjon aka kampinga peshvoz chiqib, u bilan hol-ahvol soʻrashib, tokni aytilgan narxidan qimmatroq sotib oladi. Kamping xursand boʻlib, u kishini duo qiladi. Soʻng qorovul bilan ishxonaga kiradigan yoʻlak chetiga nihollarni mehri bilan ekinghadi. Bu hikoyani qahramonimiz shunday yakunlaydi: “Oradan yillar oʻtib, Andijonga, keyin Toshkentga ishga ketganimda ham Qoʻrgʻontepaga kelganimda ham shu yerda, albatta, toʻxtab oʻtardim, bir onaxondan sotib olib, oʻz qoʻllarim bilan ekan uzum barglari soyasida oʻtirishni yoqtirardim”.

Bu barcha zamonlarda ham katta-kichik rahbarlarga ibrat boʻladigan hayotiy voqea ekan. Tasavvur qiling, turli sohalarda ishlagan



va hozir ishlayotgan rahbarlar ham bundan ibrat olib, amal qilib oʻzlaridan yaxshi nom qoldirsalar, yurtimiz yanada obod, goʻzal boʻlib, yashnab ketgan boʻlardi.

Xalq maqolida aytilganidek, “Oʻtib ketguncha, ekib ket”. Ayrim noʻnqo rahbarlar nafs yoʻlida mavjud boʻlgan serhosil bogʻlarni chopib, vayron qilayotganini koʻrib afsuslanasan. Qani Madaminjon Hasanovga oʻxshagan, fidoyi va saxovatli otalarimizning izdoshlari?..

Kitobni oʻqish jarayonida Madaminjon Hasanov faqat Qoʻrgʻontepada emas, qayerda



“Dunyoga kelishning oʻzi moʻjiza. Unda yashab oʻtib ketgandan soʻng yorugʻ va ibratli izlar qoldirish esa yuksak baxt. Shu oʻrinda davlat va jamoat arbobi Ismoil Joʻrabekovning Madaminjon Hasanov haqidagi ushbu fikrlarini keltirsak: “Ochigʻini aytaman, men bu odamni milliarder deb oʻylaganman. Butun savdo tizimini boshqargan-ku axir? Lekin uylariga borganda hayron boʻlib qoldim. Oddiy odamning uyi, oshiqcha hech narsa yoʻq... Bu inson biron kishidan tili qisq boʻlmagan. Xizmatni xalq uchun qilgan, oʻzi uchun qilmagan. Shuning uchun shunday katta obroʻga ega boʻldilar”.

va qaysi katta-kichik lavozimlarda faoliyat yuritmasin, hatto Oʻzbekiston Savdo vaziri boʻlganida ham bunday ibratli ishlarni ortigʻi bilan amalga oshirganiga guvoh boʻlamiz.

U kishi 1966-yilda “Oʻzbekirlashuv” matbuot uyushmasi raisi etib tayinlanadi. Tinib-tinchimas Madaminjon Hasanov uyushmaning faoliyatini kengaytirib, yangi loyihalar kiritib, uyushma obroʻsini sobiq Ittifoqda nufuzli oʻringa olib chiqadi. Poytaxtda “Oʻzbekirlashuv” uyushmasiga yangi bino qurish uchun Sharof Rashidovga murojaat qiladi. Rahbar bu tashabbusni har tomonlama qoʻllab-quvvatlaydi. Ish boshlangach, qurilish yetti yil davom etadi. Bu orada koʻrolmaslik kasaliga yoʻliqqan ayrim hasadgoʻylar gʻimirlab qoladi. Bundan xabar topgan Sharof Rashidov bir katta yigʻilishda shunday deydi: “Ayrimlar oʻzi tuzuk-quruq ishni eplay olmaydi, lekin boshqalarga xalqaqit qilish bilan, mayda gaplar bilan ovora boʻladi. Madaminjon uka, siz unday narsalarga eʼtibor bermang. Dadil harakat qiling, biz sizni qoʻllab-quvvatlaymiz”.

Ertasi oʻsha igʻvogarlara kelib, quchoq ochib qutlab ketishadi uni. Bino bunyod etilgach, Sharof Rashidov oʻzi tantana bilan ochadi. Bu ham qahramonimizning fidoyiligi, ishbilarmonligi, eng asosiysi vatanparvarligining yuksak namunasi edi. Shuningdek, u kishi samarali ishlagan davrda uyushma Jahon kooperatsiya alyansi Markaziy qoʻmitasiga aʼzo boʻladi. Bu Oʻzbekiston uchun katta voqea aylanadi, jahonda yurtimiz shaʼnini yanada yuqori koʻtaradi.

1977-yil Madaminjon Hasanov Oʻzbekiston Savdo vaziri etib tayinlanadi. Endi u kishining ish koʻlami koʻpayib, masʼuliyat yuki ortadi. Savdo sohasi mamlakatda yetakchi oʻrin tutishini hisobga olgan tajribali va yetuk vazir bu lavozimda ham kamtarin, oddiy va yuksak salohiyat bilan ishlaydi. U stolni mushtlaydigan, baqir-chaqir qiladigan rahbarlar toifasidan emas, aksincha, muloyim, insoniy talabchanlik bilan eng murakkab ishlarni ham amalga oshirgan. Kitobda shov-shuv qilinmasdan, oʻsha yillari respublikada yirik savdo doʻkonlari, maishiy xizmat koʻrsatish korxonalarini bunyod etish keskin koʻpayganini koʻramiz. Shuningdek, Toshkent va barcha viloyatlar markazlarida xaridorlar uchun qulay sharoitlarga ega boʻlgan zamonaviy bozorlar qad rostladi. Zamonaviy Chorsu bozori yangidan bunyod etildi. Eh-he, bunday ibratli ishlarning sanogʻi yoʻq.

Kitobda “Belarussiyaning kartoshkasi” deb nomlangan bob bor. Unda jiddiy bir voqea yoritilgan. Bir kuni Sharof Rashidov

oʻtirishimni taklif qildi. Biz deyarli bir soat urush davrlari haqida gaplashdik...

Suhbat yakunida u Ministrlar Soveti raisining rʼinbosarini chaqirib, topshiriq berishi bilan oʻrinbosar:

— Ammo, Pyotr Mironovich, biz hali Markazning talablarini yopmadik? — dedi.

— Avval Oʻzbekistonga, — dedi Masherov”.

Ushbu hikoyadan ham ayon boʻlib turibdiki, Madaminjon Hasanovning ibratli suhbat tufayli eng muhim va masʼuliyatli topshiriq yuksak darajada bajarilgan. Bu vazifaning ijobiy hal boʻlishida ham Madaminjon akaning donoligi, oʻz sohasining bilimdoni ekani va yuksak tajribasi namoyon boʻlganini koʻramiz.

Kitobni bunday hayotiy va ibratli voqealar bezab turibdi. Masalan: “Koʻzi ojiz ayol va uning nevarasi” voqesini ham koʻz yoshisiz oʻqib boʻlmaydi. Yoki AQSHga borganda maʼruzalari uchun berilgan konvert toʻla dollari Moskva kelgach, hisobot bilan birga maxsus boʻlimga topshirganini faxr bilan hikoya qiladi. Bunday ibratli ishni halol va pok insongina qila oladi...

“Bir kunlik vazir va “katta odam” hayotidan” qilingan hikoya ham kishini chuqur oʻyga toldiradi. “Abdugʻani hoji aytib bergan ikki hikoya” esa undan-da ibratli. “Davlat arboblari, hamkasblar, shogirdlari yodi” deb nomlangan soʻnggi bobni Madaminjon Hasanov umri soʻngida bunyod etib ketgan yuksak samimiy mehr-muhabbat xazinasi va insoniylik maktabi, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Dunyoga kelishning oʻzi moʻjiza. Unda yashab oʻtib ketgandan soʻng yorugʻ va ibratli izlar qoldirish esa yuksak baxt. Shu oʻrinda davlat va jamoat arbobi Ismoil Joʻrabekovning Madaminjon Hasanov haqidagi ushbu fikrlarini keltirsak: “Ochigʻini aytaman, men bu odamni milliarder deb oʻylaganman. Butun savdo tizimini boshqargan-ku axir? Lekin uylariga borganda hayron boʻlib qoldim. Oddiy odamning uyi, oshiqcha hech narsa yoʻq... Bu inson biron kishidan tili qisq boʻlmagan. Xizmatni xalq uchun qilgan, oʻzi uchun qilmagan. Shuning uchun shunday katta obroʻga ega boʻldilar”.

Toʻgʻri va halol yashash, berilgan mansabda kamtarin va samimiy boʻlish odamning oʻziga bogʻliq. Madaminjon Hasanovda hayotda zarur boʻladigan insoniy fazilatlar tugʻma edi. Taniqli shogirdlaridan Mirabror Usmonov kitobda “Bu insonga Allohning nazari tushgan”, degan taʼrifni bergan. Kitobni oʻqiganlar ham ushbu fikrga qoʻshilishi shubhasiz. Zotan, Lev Tolstoy yozganidek: “Kuchli odamlar hamisha oddiy boʻladilar”.

Bunday ulugʻ otalari bor yurtida farzandlari, avlodlar ham yuksak insoniy fazilatlar bilan voyaga yetadi. Bilimdon, jasur, mehnatkash, Vatanning qadriga yetuvchi, uni sevadigan, mard farzand boʻlib ulgʻayadilar. Aslida, yangi Oʻzbekistonda bunyod etayotgan yangi avlod uchun kitob qahramoni — Madaminjon Hasanovning ibrat maktabi hamisha yuksak va yorqin ibrat namunasi boʻlib qolaveradi...

Madaminjon Hasanov mamlakatimiz mustaqilligini koʻrib, undan benihoya xursand boʻlib, uni yanada mustahkamlashga munosib hissa qoʻshib, bebaho duolar qilib ketgan ulugʻ inson. Oʻzidan ibrat maktabini qoldirgan ustoz, ota, nabira va abiralarning suyuqli bobojonisi edi.

Kitobdagi Baxtiyor Hasanovga tasalli berib yozilgan bir sheʼrda shunday satrlar bor: Siz biz uchun chinor edingiz, Tunlar oyun kunduzi oftob. Toʻrt fasl ham bahor edingiz, Hayotingiz biz uchun kitob... Bunday ulugʻ, dono, fidoyi va mehribon otalar haqidagi “Oʻtandagan qolgan hikoyalar” kabi asarlar chin maʼnoda ibrat kitobi boʻlib qolaveradi.

Ashurali JOʻRAYEV,
Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist